TIL VA NUTQIY FAOLIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Kurbanova Nafosat Bakoyevna, *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti roman-german filologiyasi fakulteti ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*

Erkinov Firdavs Farkhod o‘g‘li, *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

Annotatsiya: Til va nutqiy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarini ko‘rib chiqishdan avval unga berilgan ta’rif va tasniflarni, nuqtai nazarlarni e’tiborga olish, nutqiy faoliyat tushunchasini chetlab o‘tish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: individual va psixofizik tomonlar, til faoliyat mahsuli, voqe til, nutqiy faoliyat, til madaniyati, nutq madaniyati.

Til-imkoniyat sifatida aloqa-aralashuv, fikr almashuv quroli. Nutq -tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish usuli, jarayoni. Demak, bu tushunchalar bir-biridan farqli va mohiyatan o'ziga xos tushunchalar ekan. Til o'rnida nutqni, nutq o'rnida tilni tushunishimiz xato hisoblanadi. Til va nutq o'rtasidagi munosabatlarni o‘rganish hozirgi zamon tilshunosligining eng muhim vazifalardan biridir. Bu masala alohida bir milliy tilni yoki umuman tillarni nazariy ta'riflashdagi boshlang‘ich nuqtadir. Til va nutq hodisalarini farqlash aksariyat tilshunoslar tomonidan tan olinadi, ammo ularning mohiyatini, chegarasini aniqlash mezonlari haqidagi fikrlar turli-tuman [1].

F.Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ikki ajralmas bo‘lagi deb hisoblab, ularni “bir paytning o'zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga daxldor” jarayonlar deb ta'riflagan edi. Til, Sossyurning fikricha, nutq faoliyatining ijtimoiy va psixik tomonlaridir, nutq esa uning individual va psixofizik tomonlari, yoli “odamlar nimani gapirsa, o‘shalarning yig'indisidir”. “Til faoliyat mahsuli emas, balki faoliyatning o'zidir” degan g‘oyani ilgari surgan V.Fon Gumboltdan farqli o‘laroq, [2] Sossyur “til faoliyat emas, balki so‘zlovchi tomonidan passiv qayd qilinadigan tayyor



mahsulot, nutq mahsulidir” deydi. Uning ta’kidlashicha, “tilning voqeligi, o‘z tabiatiga ko‘ra nutqqa nisbatan kam emas”.

Analiz va tahlillar. A.I.Smirniskiy til va nutq munosabatlarini tahlil qilar ekan, nutqiy faoliyat tushunchasini chetlab o'tadi, ammo u Sossyurga qaraganda umumiy insoniyat nutqi tushunchasiga ko‘proq mazmun bag‘ishlashga harakat qiladi. Jumladan, olim nutq quyidagi shakllarda mavjudligini alohida ta’kidlaydi:

1) tashqi tovushli belgili og‘zaki nutq;

2) tashqi grafik belgili yozma nutq;

3) hech qanday real belgilarga ega bo‘lmagan botiniy nutq.

A.I.Smirniskiy fikricha, nutqning og‘zaki va yozma shakllarda mavjud bo‘lishi uning ob’ektiv tomonini tashkil etadi va ular tashqi nutqqa tegishli bo‘ladi, ichki nutq esa faqat sub’ektiv shaklda mavjud bo'ladi va tafakkurdagi fikrni ifodalaydi. Shuningdek, “inson nutqi son-sanoqsiz va cheklanmagan miqdordagi turli-tuman nutqiy harakatlar natijasidir” va uning turlicha ko'rinishida aynan bir xil komponentlar va bu komponentlarning qo'llanishidagi qonuniyatlar aniqlanadi. Turlicha nutq bo‘laklarining majmuasi va bu komponentlarning ishlatilishi to‘g‘risidagi qonuniyatlar va qoidalar umumiylikda muayyan bir sistemani tashkil qiladi, ya’ni o‘zaro bir-birlariga bog‘langan birliklar majmuasini va ular orasidagi munosabatlarni hosil qiladi. Birliklarning bunday tizimi tildir. Olimlarning fikricha, nutq umuman olganda “tadqiqot uchun xom materialdir”, til esa bu “materialga asoslangan tadqiqot predmatidir”[3].

F. de Sossyur va A.I.Smirniskiy faqat bir masalada hamfikrdirlar, ya'ni til nutqdan hosil bo'ladigan mahsulotdir va u tilshunoslar uchun ilmiy tadqiq predmetidir.

Ayrim tadqiqotchilar til va nutq munosabatiga boshqacha yondashadilar. Ularning fikricha, nutq tildan hosil bo'ladi, ya'ni til mutaxassislarning lingvistik faoliyatning natijasi emas, balki nutqda o'z ifodasini topadigan ob'ektiv mavjud hodisadir.



Masalan, T.P.Lomtevning fikricha, “Til shunday ma’no-mazmunni anglatadiki, uning mavjud bo'lishi va ifodalanishi nutq orqali amalga oshadi”. O‘zbek olimi Sh.Rahmatullayev ham xuddi shunday fikrni bildiradi. Uning ta’kidlashicha, til nutq uchun xomashyo bo‘lganidek, nutq ham til uchun xomashyo vazifasini o‘taydi. Olimning fikricha, chaqaloq tug‘ilganda uning til zahirasi bo‘sh bo‘ladi va atrofdagilarning nutqi hisobiga boyib boradi. Biz bu fikrni ma’qullaymiz, ya’ni til va nutq o‘rtasida qarama-qarshilik emas, balki o‘zaro aloqadorlik mavjud deb hisoblaymiz.

O‘rganilayotgan masala bo‘yicha bildirilgan turli-tuman nuqtai nazarlarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, til nutqiy faoliyatning ko‘chmasidir, biroq turli tushunchalarni ifodalovchi bu atamalar turli ma’nolarda ishlatib kelinmoqda. Til bir tomondan nutq hosil qilinadigan va tushuniladigan qurilma sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan, mutaxassislar nutq faktlaridan xulosa qiladigan qoidalar tizimi, birliklar majmuasidir. Bu tushunchalarning har ikkalasi ham o‘zaro bir-birlariga bog'liqdir, chunki til qurilma sifatida mohiyatni anglatadi, bu mohiyatni unda mavjud bo'lgan qoida va birliklar orqali bilish mumkin [4].

Nutq, birinchidan, fikr-mulohaza bildirish jarayoni, ikkinchidan, u til qurilmasi faoliyati natijasidir.

Til va nutq haqida bildirilgan bunday fikrlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, ular o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi hodisalardir.

Til asosida inson ichki dunyosining o'ziga xos shaklda obrazlashuvi sodir bo'ladi. Shuning uchun ham til ma'naviy va moddiy ishlab chiqarish jarayonlari va ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Shu bilan birga, u o'z qonuniyatlariga ega mustaqil barqaror va turg‘un tizim, (masalan, undagi jumlalar, til birliklari, ya'ni o'z birikmalari, so‘z, morfema va boshqalarga ajraladi). Til insonlar xotirasida saqlansa-da, biroq u o‘z – o‘zidan ishlab ketmaydi. Til muayyan ijtimoiy faoliyat (ya’ni muloqot) quroli bo'lgani uchun, asosan, nutqiy faoliyat jarayonida unga nisbatan kuchli ehtiyoj seziladi. Natijada insonlar o‘rtasidagi turlicha munosabat shakllanadi.



Nutq - mustaqil faoliyat, u orqali til tizimi o‘zligini to‘liq namoyon etadi. Nutq -muloqot, unda jamiyatning u yoki bu qatlamiga tegishli madaniyati ham ma’lum darajada o‘z aksini topadi. Til va nutqni o'zaro taqqoslaganda quyidagilar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

1. Til muloqot uchun xizmat qiladi va insonning dunyo haqidagi bor tasavvurlarini ma'lum bir belgilar orqali ifodalashga qodir.

2. Nutq tilning amaliyot jarayonida tatbiq etilishidir; u harakatdagi til bo‘lib, muloqot vositalarini aniq qo'llash paytidagi ketma- ketligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Til biror bir ijtimoiy jamoaga (biror bir millatga) tegishli belgilar tizimi va nutqiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lsa-da, biroq u nutq bilan teng bo'la olmaydi. Nutq jarayonida til tizimlari ishga solinadi. Nutq - individual ong va hohish-istak shakli. U bir tomondan so'zlovchi til shakllari orqali o'z fikrlarini ifodalashdagi almashinuvni taqozo etsa, ikkinchi tomondan - u psixofiziologik mexanizm sifatida ushbu almashinuvlar mustaqilligini ta'minlaydi [5].

Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, til madaniyati tilning leksik, sintaktik, semantik, ifodalilik va turfa o'zgaruvchanligi qay darajada rivojlangan va boy ekanligini ko'rsatsa, nutq madaniyati nutqiy muloqot asosida borliq va shaxs haqidagi axborotni yuzaga keltirish, uni til tizimi belgilari orqali ifodalash va aniq yetkazish usulidir. Yoki til madaniyati tilning “madaniylashganlik”, adabiylashganlik, normalashganlik darajasini, lug‘at tarkibi, grammatik, semantik, stilistik jihatlardan rivojlanganlik, boylik darajasini, potentsial ifoda imkoniyatlarining ko'lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa bemalol, maqsadga muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng maqbulini tanlay bilish va shu asosda to'g'ri va ta'sirchan nutq tuza olish mahoratidir. Har qanday nutqning asosiy maqsadi



muayyan axborotni tinglovchi (o'quvchi) ga yetkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat.

Til va nutq o‘zaro dialektik bog‘liq ijtimoiy - tarixiy, ijtimoiy - psixologik hodisalar bo'lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy - individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining ob'ektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o‘zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo‘lishidir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng ma’noda so'zlardan, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matn ko'rinishining ifodasi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ruhiyat va nafosat hodisasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Usmonov. General Linguistics. T., 1972.
2. Yu.S. Stepanov. Foundations of General Linguistics. - M., 1975.
3. N.A. Baskakov, A.S.Sodiqov, A.A.Abduazizov. General Linguistics. T., 1979
4. R. Rasulov. Lexico-semantic groups of state verbs and their valence. T., 1991.
5. H.Nematov, O.Bozorov. Language and speech. T., 1993.